



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراس professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O'zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No'rbo'ta o'g'li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O'zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улутбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отақулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга таҳлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тadbirkorlik субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Кодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budjet mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193





27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida mevachilik tarmog'ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo'llari	335
47.	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun'iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o'g'li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371





53.	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57.	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rni: Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63.	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрни	459
64.	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65.	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66.	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67.	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68.	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69.	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibligi va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70.	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71.	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526
72.	Xonova Nodira Fazliddinovna	Kraudfunding platformalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari	534
73.	Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli	544
74.	Umarov Abduvahob Tursunovich	Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	550
75.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Xorijiy davlatlar qarzini boshqarishga doir tajribalari va milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	557





XORIJIY DAVLATLAR QARZINI BOSHQARISHGA DOIR TAJRIBALARI VA MILLIY AMALIYOTDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Nematullayev Hamidullo Azizillo o‘g‘li

*Andijon davlat texnika instituti
“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi talabasi
ORCID: 0009-0001-4040-8014*

Annotatsiya. Maqolada xorijiy davlatlarning davlat qarzini boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalari, ularning institutsional va tashkiliy mexanizmi hamda O'zbekiston amaliyotida ulardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida G7 va MDH davlatlarining davlat qarzi ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning qarz siyosatining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to'g'risida”gi Qonuni asosida davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda ilg'or xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, davlat qarzini boshqarish, fiskal barqarorlik, qarz portfeli, davlat obligatsiyalari, davlat kafolatlari, qarz strategiyasi, MTDS, DSA, fiskal risklar.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМ ДОЛГОМ И ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Нематуллаев Хамидулло Азизилло углы

*Студент
Андижанский государственный технический институт
специальность «Бухгалтерский учет и аудит»
ORCID: 0009-0001-4040-8014*

Аннотация. В статье исследованы зарубежный опыт управления государственным долгом, институциональные механизмы регулирования и возможности их применения в Республике Узбекистан. Проведен сравнительный анализ показателей государственного долга стран G7 и СНГ, определены особенности их долговой политики. Кроме того, на основе Закона Республики Узбекистан «О государственном долге» разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы управления государственным долгом, а также по адаптации передового международного опыта к национальной практике.

Ключевые слова: государственный долг, управление государственным долгом, фискальная устойчивость, долговой портфель, государственные облигации, государственные гарантии, долговая стратегия, MTDS, DSA, фискальные риски.

FOREIGN EXPERIENCE IN PUBLIC DEBT MANAGEMENT AND OPPORTUNITIES FOR ITS APPLICATION IN NATIONAL PRACTICE

Khamidullo Nematullaev Azizillo ugli

*Student
Andijan State Technical Institute
Faculty “Accounting and Auditing”
ORCID: 0009-0001-4040-8014*

Abstract. This article examines international best practices in public debt management, institutional mechanisms of debt governance, and the prospects for their application in the national practice of Uzbekistan. A comparative analysis of public debt indicators across G7 and CIS countries is conducted to identify the key features of their debt management policies.





Furthermore, drawing upon the Law of the Republic of Uzbekistan “On Public Debt”, the study develops scientifically grounded recommendations for improving the public debt management system and adapting international best practices to the national institutional framework.

Key words: *public debt, public debt management, fiscal sustainability, debt portfolio, government securities, sovereign guarantees, debt strategy, MTDS, DSA, fiscal risks.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida davom etayotgan geosiyosiy ziddiyatlar, global inflyatsion bosimning kuchayishi, xalqaro tovar va moliya bozorlaridagi beqarorlik, kapital bozorida foiz stavkalarining oʻzgaruvchanligi hamda davlatlar tomonidan iqtisodiy faollikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan fiskal ragʻbatlantirish choralarining keng qoʻllanilishi natijasida davlat qarzi hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar, pandemiya oqibatlar, energiya va oziq-ovqat narxlarining oshishi, ijtimoiy xarajatlarning kengayishi hamda strategik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish zarurati davlatlarning ichki va tashqi qarz mablagʻlariga boʻlgan ehtiyojini kuchaytirmoqda. Natijada davlat qarzi zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim moliyaviy instrumentlaridan biriga aylanib, uning hajmi, tarkibi va xizmat koʻrsatish xarajatlari davlat moliyasining barqarorligiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda.

Xalqaro valyuta jamgʻarmasi va Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, davlat qarzi koʻplab mamlakatlarda iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, byudjet taqchilligini moliyalashtirish, yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qoʻllab-quvvatlash hamda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishning muhim moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan jalb etilgan qarz mablagʻlaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish va iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini taʼminlash imkonini beradi. Shu jihatdan, oqilona qarz siyosati mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va tarkibiy islohotlarni moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat qarzini boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi nafaqat qarz hajmini nazorat qilishni, balki qarz portfelinig tarkibini optimallashtirish, valyuta va foiz stavkasi bilan bogʻliq risklarni kamaytirish, qarz boʻyicha muddatlarni diversifikatsiya qilish, qarzga xizmat koʻrsatish xarajatlarini maqbullashtirish hamda jalb etilgan mablagʻlardan foydalanish samaradorligini oshirishni ham nazarda tutadi. Shuning uchun davlat qarzini boshqarish tizimi bugungi kunda davlat moliyasini boshqarishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida eʼtirof etilib, fiskal siyosatning strategik yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida ham davlat qarzini boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, fiskal intizomni mustahkamlash hamda qarz mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini oshirish boʻyicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yoʻnalishdagi tub burilishlardan biri sifatida Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 20-apredagi “Davlat qarzi toʻgʻrisida”gi Qonuni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun davlat qarzini jalb etish, undan foydalanish, qarz majburiyatlariga xizmat koʻrsatish, ularni qaytarish hamda monitoring qilishning yagona huquqiy mexanizmini belgilab berdi. Qonunda davlat qarzini boshqarishning asosiy tamoyillari sifatida fiskal barqarorlik, shaffoflik, hisobdorlik, tavakkalchiliklarni boshqarish va qarz xavfsizligini taʼminlash ustuvor yoʻnalishlar etib belgilangan.

Shu bilan birga, mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish va xususiy investitsiyalarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida jalb qilinayotgan tashqi va ichki qarz mablagʻlari hajmining ortib borishi ularni boshqarish samaradorligini yanada oshirishni talab etmoqda. Ayniqsa, qarz mablagʻlarini iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydigan yuqori samarali investitsiya loyihalariga yoʻnaltirish, qarz portfelinig valyuta va foiz risklarini diversifikatsiya qilish hamda ilgʻor xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.





Adabiyotlar sharhi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat qarzi bo'yicha samarali fiskal muvofiqlashtirish va institutsional islohotlar mamlakatlar o'rtasida barqaror konvergensiya guruhlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mualliflar fiskal intizom, makroiqtisodiy barqarorlik va mintaqaviy hamkorlik davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omillari ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydilar [2]. Olimlar Zimbabvedda davlat qarzining barqaror o'sishiga sabab bo'lgan omillarni xalqaro qiyosiy tahlil asosida o'rganganlar. Davlat qarzining ortishiga institutsional zaifliklar, korrupsiya, huquqiy me'yorlarga rioya qilinmasligi, budjetdan tashqari xarajatlar hamda qarzlarni boshqarish tizimida shaffoflik va hisobdorlikning yetarli emasligi asosiy sabab bo'lgan [3]. Davlat qarzini professional boshqarish xususiy sektorga kreditlash hajmini oshiradi, moliyaviy bozorlar barqarorligini mustahkamlaydi hamda xususiy kapital oqimlarini rag'batlantiradi. Mualliflar davlat moliyasini samarali boshqarish investitsion muhitni yaxshilashi, moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoit yaratishini ilmiy jihatdan asoslaydilar [4]. Davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri mamlakatlarning makroiqtisodiy sharoiti va qarz darajasiga qarab farqlanadi. Mualliflar ayrim mamlakatlarda qarzning ma'lum chegaragacha iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishini, boshqalarida esa past darajadayoq salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Shuning uchun davlat qarzini boshqarishda mamlakatning fiskal salohiyati, institutsional sifati va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial yondashuv zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan [5].

Makroiqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya va tashqi iqtisodiy xatarlar sharoitida qarz siyosatini oqilona yuritish davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qarz portfelini diversifikatsiya qilish, qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirish hamda ichki va tashqi qarzlar nisbatini muvozanatli boshqarish fiskal barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning muhim shartlari hisoblanadi [6]. Mualliflarning ta'kidlashicha, davlat qarzini samarali boshqarish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, fiskal risklarni kamaytirish va davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlashning muhim omilidir. Tadqiqotda qarz portfelini diversifikatsiya qilish, qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirish, institutsional boshqaruvni takomillashtirish hamda shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida asoslangan [7]. Mualliflarning ta'kidlashicha, davlat qarzining samarali boshqaruvi faqat qarz hajmini nazorat qilish bilan cheklanmay, balki ichki va tashqi qarzlar, davlat kafolatlari hamda boshqa shartli majburiyatlarni yagona tizim asosida boshqarishni talab etadi. Tadqiqot natijasida davlat qarzini tartibga solish bosqichlari ishlab chiqilib, qarz portfelini optimallashtirish, investitsion instrumentlarni diversifikatsiya qilish va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar taklif etilgan [8].

Davlat qarzlarining iqtisodiyotga ta'siri bir vaqtda ham ijobiy va ham salbiy bo'lishi mumkin. Davlat qarzlarining past darajada bo'lishi yoki davlat budjetining profitsitda bo'lishi moliya bozorida davlat qimmatli qog'ozlarining amaliyoti kuzatilmaydi. Bu o'z navbatida moliya bozorining eng likvid instrumenti hosil bo'lmaslikka va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslarni olishda faqatgina bank tizimiga qaram bo'lib qolishlariga olib keladi. Shuningdek, davlat xarajatlarning ortishi savdo balansida defitsitni yuzaga keltiradi [9]. Xalqaro moliya-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish, interatsiya jarayonlarini tashkil etish sharoitida davlat qarzi iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim instrumentlardan biri sanaladi. Aksariyat xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotni rivojlanganlik darajasidan qat'iy nazar, davlatning ichki va tashqi qarziga ega. Davlat qarzi dinamik ko'rsatkich bo'lib, yillar mobaynida o'sishi yoki kamayishi mumkin. Davlat qarzining kamayishi bilan qarz yuki kamayadi, davlat qarziga xizmat ko'rsatishga sarflangan mablag'lar tejaladi [10].

Albatta, yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy yondashuvlarni umumlashtiradigan bo'lsak, davlat qarzini boshqarish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda asosan fiskal barqarorlikni ta'minlash, makroiqtisodiy risklarni minimallashtirish, qarz portfelini





optimallashtirish hamda davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlash nuqtai nazaridan o'rganilganligini ko'rish mumkin. Aksariyat xorijiy tadqiqotlarda davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri fiskal intizom, institutsional boshqaruv sifati, qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi va makroiqtisodiy muhit bilan uzviy bog'liq holda baholangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Xorijiy davlatlarning davlat qarzini boshqarish tizimini o'rganishda tizimli yondashuv, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilib, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning davlat qarzini boshqarish bo'yicha institutsional hamda tashkiliy mexanizmi o'zaro taqqoslandi. Tadqiqot jarayonida davlat qarzining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholashda statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, iqtisodiy-statistik umumlashtirish hamda grafik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

2022-2025 yillarda AQSH, Yaponiya, Italiya, Fransiya, Hindiston va Xitoy kabi yirik iqtisodiyotlarga ega davlatlar tashqi qarzning katta qismini tashkil etib, global moliyaviy muvozanatga katta ta'sir ko'rsatgan. Xalqaro reyting agentliklari ham qarzning tez sur'atlar bilan ortib borishi fonida ayrim davlatlarning kredit reytinglarini pasaytirgan⁶⁸. Shuningdek, 2024-2025 yillarda ko'plab davlatlar “yashil obligatsiyalar” (green bonds) kabi ekologik yo'naltirilgan qarz instrumentlarini joriy qilish orqali nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlikka ham e'tibor qaratishni boshladi. Umuman olganda, global qarzning izchil o'sib borayotgan sharoitida davlatlarning iqtisodiy siyosatini qayta ko'rib chiqish, qarzga bog'liqlikni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va kredit reytinglarini barqaror ushlab turish bo'yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqishi dolzarb masalaga aylangan. Bu esa, o'z navbatida, ilg'or xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va mamlakatlar sharoitiga moslashtirilgan tavsiyalar asosida qarz boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

G7 davlatlarining yuqori miqdordagi qarzga ega bo'lish bilan birga monetar va fiskal siyosatni samarali amalga oshirayotganligi, ularning tajribasi qarzni barqaror boshqarish strategiyalariga asoslanadi deb o'ylaymiz. Ushbu davlatlar yuqori qarz-nisbatlarini kamaytirish uchun odatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, inflyatsiya ta'sirida qarzni muvozanatligini ta'minlash, shuningdek fiskal konsolidatsiya (budget defitsitini qisqartirish) kabi choralarni muvofiqlashtira oladi. Tadqiqotlarga ko'ra, qarzning YaIMga nisbatan ulushini pasaytirish uchun fiskal tejamkorlik, yuqori iqtisodiy o'sish, mo'tadil darajadagi inflyatsiya va ayrim hollarda moliya “repressiyasi” (foiz stavkalarini sun'iy past darajada ushlab turish) kombinasiyasi kerak bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qarzni boshqarishda eng muhimi, bozor ishonchini saqlash va qarzni o'z vaqtida qaytarish qobiliyatini namoyish etishdir. Aksariyat G7 davlatlari Germaniya va Kanada – AAA, AQSh – AA+ kabi eng yuqori kredit reytinglariga ega bo'lib, bu esa ularga past foiz stavkalarda ham qarz olish imkonini beradi.

Tadqiqotlardan aniqlandiki, G7 davlatlarining qarzni boshqarish borasidagi strategiyalari yoki yondashuvlari ko'p jihatdan o'zaro o'xshash tasmaoyillarga ega. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan taklif etilgan qarzni boshqarish bo'yicha ko'rsatmalarda aytilishicha, davlat qarzi boshqaruvi strategiyasining asosiy maqsadi – hukumatning moliyalashtirish ehtiyojlarini va to'lov majburiyatlarini o'rta va uzoq muddatda minimal xarajatlar bilan, maqbul darajadagi tavakkalchilikni saqlagan holda ta'minlashdir. AQSh davlat qarzini boshqarishga doir strategiyasining asosiy yo'nalishlari davlat obligatsiyalarini chiqarish, qisqa va uzoq muddatli qarz balansini optimallashtirish, AQSh Federal zaxira tizimi bilan muvofiqlashtirish iqtisodiy o'sish orqali qarz ulushini kamaytirish hisoblansa, Germaniyada esa “Qarz tormozi” (Schuldenbremse) siyosati orqali yillik budget defitsitini cheklash, davlat obligatsiyalari emissiyasini nazorat qilish, ortiqcha budget shakllantirilsa qarzni qoplashga yo'naltirish hamda konservativ fiskal siyosatni o'z

⁶⁸ <https://www.imf.org/en/Publications>





ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval

G7 davlatlarining davlat qarzini boshqarish siyosatining asosiy yo‘nalishlari⁶⁹

Davlat	Davlat qarzini boshqarish siyosatining asosiy yo‘nalishlari	Izoh
AQSh	Federal qarzni moliyalashtirish uchun davlat obligatsiyalarini chiqarish; qisqa va uzoq muddatli qarz balansini optimallashtirish; Federal xazina tizimi bilan muvofiqlashtirish; foiz to‘lovlarini nazorat qilish; iqtisodiy o‘rish orqali qarz ulushini kamaytirish.	AQSh eng yirik obligatsiya bozoriga ega bo‘lib, qarz boshqaruvi asosan investor ishonchi va dollarning xalqaro valyuta maqomiga tayangan.
Yaponiya	Ichki investorlar (asosan banklar va pensiya jamg‘armalari) orqali qarzni moliyalashtirish; foiz stavkalarini juda past darajada ushlab turish; davlat obligatsiyalarini markaziy bank tomonidan sotib olish; infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga investitsiya orqali o‘rishni rag‘batlantirish.	Yaponiyaning qarz/YaIM ko‘rsatkichi juda yuqori bo‘lsa-da, qarz asosan ichki bozorda joylashtirilgani sababli defolt riski past.
Germaniya	“Qarz tormozi” (Schuldenbremse) siyosati orqali yillik budjet defitsitini cheklash; davlat obligatsiyalari emissiyasini nazorat qilish; ortiqcha budjet daromadlari shakllansa qarzni kamaytirishga yo‘naltirish; konservativ fiskal siyosat.	Germaniya Yevropa Ittifoqida eng qat‘iy fiskal intizomga ega davlatlardan biri bo‘lib, qarz darajasi past hisoblanadi.
Buyuk Britaniya	Oltin qoidaga asoslangan budjet yuritish (faqat investitsiyalar uchun qarz olish); davlat obligatsiyalarini chiqarish; foiz xarajatlarini pasaytirish uchun muddatlarni diversifikatsiya qilish; iqtisodiy o‘rish va soliq bazasini kengaytirish.	Buyuk Britaniya qarz boshqaruvida investor ishonchini saqlash uchun obligatsiya muddatlarini uzoq muddatli qilib belgilashga intiladi.
Fransiya	Budjet defitsitini Yevropa Ittifoqi belgilagan chegaralarda (YaIMna nisbatan 3 foiz) ushlab turishga intilish; davlat obligatsiyalari orqali moliyalashtirish; ijtimoiy dasturlar va investitsiyalarni saqlagan holda qarzni barqarorlashtirish.	Fransiya iqtisodiy o‘rishni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlarini yuqori darajada saqlab qoladi, bu esa qarz darajasini pasaytirishni sekinlashtiradi.
Italiya	Yuqori qarz yukini moliyalashtirish uchun ichki va xalqaro obligatsiyalar chiqarish; foiz stavkalarini pasaytirish uchun muddatlarni uzaytirish; iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish orqali qarz ulushini kamaytirish; Yevropa Markaziy Banki bilan muvofiqlashtirilgan holda moliyaviy siyosat yuritish.	Italiya qarz darajasi G7 ichida eng yuqori davlatlardan biri bo‘lib, qarzni barqarorlashtirishda Yevropa Markaziy Banki tomonidan qo‘llab-quvvatlashi muhim sanaladi.
Kanada	Federal va provinsial (mahalliy darajada) qarzlarni boshqarishni uyg‘unlashtirish; uzoq muddatli obligatsiyalar ulushini oshirish; fiskal barqarorlikni ta‘minlash uchun qarz/YaIM nisbati bo‘yicha o‘rta muddatli maqsadlar belgilash; moliyaviy xazinalarni saqlash.	Kanada qarz boshqaruvida uzoq muddatli obligatsiyalarni ko‘paytirib, foiz xavfini kamaytirishga harakat qiladi.

Aytib o‘tish kerakki, keyingi o‘n yillikda MDH davlatlari orasida davlat qarzlarni boshqarishga doir ko‘plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu nafaqat xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq, balki milliy amaliyotda ham ichki imkoniyatlarni to‘g‘ri baholash asosida qarzlarni boshqarishga doir strategiyalarni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. MDH davlatlarining davlat qarzi bo‘yicha moliyaviy holati turlicha bo‘lib, ularning iqtisodiy siyosatlari, tashqi qarz jalb qilish strategiyalari va

⁶⁹ Davlatlarning rasmiy yillik statistik hisobot ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan





makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga bog'liq deb hisoblaymiz (2-jadval).

2-jadval

MDH davlatlarining davlat qarzi haqida ma'lumot⁷⁰

№	Mamlakatlar nomi	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Davlat qarzining YAIM ga nisbati (% , da)							
1.	Armaniston	50,1	63,5	60,2	49,3	48,1	50,3
2.	Belarus Respublikasi	41,0	47,0	41,0	41,0	40,7	41,3
3.	Ozarbayjon	17,66	21,33	26,35	17,32	21,81	20,85
4.	Rossiya federatsiyasi	13,8	19,2	16,4	18,5	19,6	20,3
5.	Qirg'iziston	67,96	56,36	47,09	44,0	41,95	40,5
6.	Qozog'iston	19,9	23,7	22,4	21,4	20,8	23,7
7.	O'zbekiston	29,6	38,8	37,8	36,0	38,4	39,5
8.	Tojikiston	43,5	39,2	36,3	32,5	30,9	29,5
Aholi jon boshiga davlat qarzi (doll.)							
1.	Armaniston	2377	2535	3117	2760	2670	4170
2.	Belarus Respublikasi	3075	3505	3110	3110	3077	3180
3.	Ozarbayjon	845	900	1422	1348	1551	1515
4.	Rossiya federatsiyasi	1576	1930	2053	2891	2815	2999
5.	Qirg'iziston	620	809	782	845	897	903
6.	Qozog'iston	745	831	930	1097	1950	2962
7.	O'zbekiston	536,1	690,2	762,3	829,5	969,4	1116,6
8.	Tojikiston	379	432	377	394	374	357

Davlat qarzining YAIMga nisbati va aholi jon boshiga qarz yukining ortishi, ayniqsa, iqtisodiy o'sishni moliyalashtirishda tashqi resurslarga bog'liqlikni oshiradi. Biroq, bu holat uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin. Shuning uchun, davlatlar uchun samarali qarz boshqaruvi strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. 2-jadval natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, MDH davlatlari o'rtasida davlat qarzining YAIMga nisbati bo'yicha sezilarli farqlar mavjud.

Qirg'iziston bu davrda eng yuqori davlat qarziga ega davlat sifatida ajralib turadi. 2019 yilda bu ko'rsatkich 67,96%ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 40,5%gacha pasaygan. Bu kamayish iqtisodiy islohotlar, fiskal intizom va tashqi qarzlarni kamaytirish strategiyasining natijasi sifatida baholanishi mumkin. Armanistonda esa qarz darajasi nisbatan yuqori bo'lib, 2020 yilda 63,5% bilan eng yuqori cho'qqiga chiqqan, ammo keyingi yillarda bu ko'rsatkich 48,1-50,3% oralig'ida barqarorlashgan. Belarus va O'zbekistonda qarz nisbati nisbatan barqaror sur'atda o'sgan. O'zbekistonning YaIMga nisbatan qarzi 2019 yildagi 29,6% dan 2024 yilda 39,5% gacha yetgan. Bu, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun ichki va tashqi qarzlar jalb qilinayotganidan darak beradi. Rossiya Federatsiyasi davlat qarzining eng past nisbati bilan ajralib turadi - 2019 yilda 13,8%, 2024 yilda esa 20,3% ni tashkil etgan. Bu o'z navbatida Rossiya federatsiyasining neft va gazdan tushadigan barqaror daromadlari hisobi bilan izohlanadi.

⁷⁰ International Debt Statistics (IDS) <https://www.worldbank.org/en/programs/debt-statistics/ids/products-Jahon> bankining ma'lumotlari asosida tayyorlandi





Ozarbayjonda esa YaIMga nisbatan davlat qarzi nisbatan past darajada bo‘lib, 2021 yilda biroz o‘shir (26,35%) kuzatilgan, ammo 2024 yilda 20,85%gacha pasayganligini qayd etish mumkin.

Xulosa

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda qarz mablag‘laridan asosan iqtisodiy o‘shirni rag‘batlantirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida foydalaniladi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda esa davlat qarzining samarasiz boshqarilishi fiskal nomutanosibliklar, qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining ortishi, investitsion faollikning pasayishi hamda davlat moliyasi barqarorligiga salbiy ta‘sir etayotganligini ham qayd etish kerak. Shu nuqtai nazardan, davlat qarzining optimal darajasini belgilash, qarz portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni samarali boshqarish hamda qarz mablag‘larining iqtisodiy samaradorligini oshirish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzini boshqarish to‘g‘risida”gi qonuni asosida davlat qarzi bo‘yicha fiskal cheklovlar, qarz portfelining tavakkalchilik darajasini baholash, davlat kafolatlari monitoringini takomillashtirish hamda davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60 foizlik chegaraviy darajasini saqlash mexanizmlari qonunchilik darajasida mustahkamlandi. Bu esa davlat qarzini boshqarishda xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan fiskal qoidalar (Fiscal Rules), o‘rta muddatli qarz strategiyalari (Medium-Term Debt Management Strategy – MTDS) hamda qarz barqarorligini baholash (Debt Sustainability Analysis – DSA) kabi zamonaviy yondashuvlarni milliy amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish uchun muhim institutsional asos yaratdi.

Bugungi kunda G7 davlatlarining davlat qarzlarini yuqori bo‘lsada, biroq samarali boshqarib kelayotganligini alohida qayd etish kerak. Albatta, ushbu davlatlarning har biri qarzlarini boshqarishda o‘ziga xos risk va muammolarga ega deyishimiz mumkin. Jumladan, Yaponiyada investorlar tarkibining qisqarishi (hayot sug‘urtasi kompaniyalari va pensiya jamg‘armalari kamayishi) oqibatida so‘nggi yillarda uzoq muddatli obligatsiyalarga bo‘lgan talab kamayib bormoqda. AQShda esa davlat qarzi bo‘yicha siyosiy kelishmovchiliklar (qarz limiti masalasi) fond bozorlarini istiqboldagi holatlar bo‘yicha prognozlarni oqlamasligi mumkin. Shunga qaramay, rivojlangan davlatlarning qarzlarini boshqarishga doir tajribalari qarzni samarali boshqarish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qarzni milliy valyutada jalb qilish, qarz muddatini muvozanatda saqlab turish, tavakkalchiliklarni samarali boshqarish, mustaqil va professional qarz boshqaruv institutlarini tashkil etish, shaffoflikni ta‘minlash va bozor ishonchini mustahkamlash kabilar rivojlangan davlatlar tajribasining asosiy o‘rganish kerak bo‘lgan jihatlari hisoblanadi, deb o‘ylaymiz.

Xorijiy tajriba ko‘rsatadiki, suveren reytingning har bir pog‘ona oshishi qarz olish qiymatini sezilarli kamaytiradi va investorlar doirasini kengaytiradi. Demak, O‘zbekiston uchun o‘rta muddatli maqsad sifatida yuqori investitsion reytingga erishish bo‘lishi kerak. Buning uchun yuqorida aytilgan fiskal intizomni saqlash, tashqi qarzni mo‘tadil darajada ushlash, iqtisodiy o‘shirni barqaror yuqori sur‘atlarda davom ettirish zarur. Shuningdek, qarz bilan ishlashda shaffoflik va hisobotlilikni oshirish lozim. Rivojlangan davlatlar har yili parlamentga va jamoatchilikka davlat qarzi holati bo‘yicha batafsil hisobotlar taqdim etadi, qarz strategiyasini e‘lon qiladi. O‘zbekiston ham 2021 yildan boshlab Ochiq byudjet portalida qarz bo‘yicha ma‘lumotlarni e‘lon qilib borayotgan bo‘lsada, biroq bu amaliyotni yanada boyitish kerak. Bu borada Yaponiya tajribasidan foydalanish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonuni 29.04.2023 y. O‘RQ-836-son.
2. Brou J. - C.K., Bouoiyour J., Hueber O. Harmonizing public debt and creating convergence clubs in sub-Saharan Africa // Economic Systems. – 2025. - Vol. 49. - No. 4.





3. Mateko F.M., Maiwasha B., Tsara E. The intractability of public debt in post-independent Zimbabwe: An international comparison // Journal of Policy Modeling. - 2025. - Vol. 47. - No. 2. - P. 394-406.
4. Pedersoli S., Presbitero A.F. Public debt management and private financial development // Economic Systems. - 2023. - Vol. 47. - No. 1.
5. Babar M.A., Rizvi S.K.A., Waqas M. Public debt – economic growth nexus in emerging and developing economies: Exploring nonlinearity // Finance Research Letters. – 2023. – Vol. 52.
6. Иволгина Н.В. Управление государственным долгом как основа обеспечения долговой устойчивости государства // Аудиторские ведомости – 2025. – № 1. - С. 80-87.
7. Шкодинский С.В., Романцова Т.В. Система управления государственным долгом России: современные тенденции, проблемы, институциональные особенности // Вестник Евразийской науки (The Eurasian Scientific Journal). - 2023. - Т. 15. - № 1.
8. Зинич Л.В., Петров Е.С. Управление совокупным долгом государства // Креативная экономика (Creative Economy). - 2024. - Т. 18. - № 10.
9. G‘aniyev D.A. Davlat qarzi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik – O‘zbekiston misolida//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 3/2022, may-iyun.
10. Olimjonov Z.Z. Davlatning qarzlarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda xalqaro me‘yorlarni joriy etishning ahamiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali 2022 yil 3-son.

